

## XIVA XONLIGI HAYOTIDA MASJIDLARNING O'RNI VA ROLI

Tadjiyeva Feruza Jumabayevna, Ma'mun universiteti NTM Tarix  
kafedrasi dotsenti, (PhD)

## THE PLACE AND ROLE OF MOSQUES IN THE LIFE OF KHIVA KHANATE

Tadjiyeva Feruza Jumabayevna, associate professor of the  
Department of History, Ma'mun University, (PhD)

## МЕСТО И РОЛЬ МЕЧЕТЕЙ В ЖИЗНИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА

Таджиева Феруза Джумабаевна, доцент кафедры истории  
Университета Маъмуна, (PhD)



<https://orcid.org/0000-0002-9320-471X>  
e-mail: [ftj85@mail.ru](mailto:ftj85@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Xiva xonligi hayotida masjidlarning o’rni va roli” mavzusini yoritadi. Xiva xonligi tarixida masjidlar nafaqat diniy ibodat joylari, balki ijtimoiy va siyosiy hayotning markazlari sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Maqolada masjidlarning diniy vazifalari, jamoat hayotidagi o’rni, shuningdek, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi roli batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, masjidlarning arxitektura va madaniyatdagi o’rni ham ko’rsatib o’tiladi. Xiva xonligining tarixiy kontekstida masjidlarning ahamiyatini tushunish, ushbu hududning madaniy merosini va ijtimoiy tuzilishini yanada chuqurroq o’rganishga yordam beradi. Maqola, shuningdek, masjidlarning zamonaviy hayotdagi o’rni va ularning tarixiy ahamiyatini saqlab qolish zarurligini ta’kidlaydi.

**Kalit so’zlar:** masjid, baytulloh, ibodatxona, xonadon, vaqf, mehrob, minora, ichki qal’a, tashqi qal’a.

**Abstract:** This article covers the topic “The place and role of mosques in the life of Khiva Khanate”. In the history of the Khiva Khanate, mosques were important not only as places of religious worship, but also as centers of social and political life. The article analyzes in detail the religious functions of mosques, their place in public life, as well as their role in making political decisions. Also, the role of mosques in architecture and culture is shown. Understanding the importance of mosques in the historical context of the Khiva Khanate helps to further study the cultural heritage and social structure of this region. The article also emphasizes the need to preserve the place of mosques in modern life and their historical significance.

**Key words:** mosque, Baitullah, synagogue, house, endowment, mihrab, minaret, inner castle, outer castle.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается тема «Место и роль мечетей в жизни Хивинского ханства». В истории Хивинского ханства мечети имели важное значение не только как места религиозного поклонения, но и как центры общественной и политической жизни. В статье подробно анализируются религиозные функции мечетей, их место в общественной жизни, а также роль в принятии политических решений. Также показана роль мечетей в архитектуре и культуре. Понимание значения мечетей в историческом контексте Хивинского ханства помогает дальнейшему изучению культурного наследия и социальной структуры этого региона. В статье также подчеркивается необходимость сохранения роли мечетей в современной жизни и их исторического значения.

**Ключевые слова:** мечеть, Байтулла, синагога, дом, дар, михраб, минарет, внутренний замок, внешний замок.

**KIRISH.** Xiva xonligi hayotida masjidlar muhim ijtimoiy, diniy va madaniy markazlar sifatida xizmat qilgan. Ular nafaqat ibodat joylari, balki jamiyatning birlashish va madaniy hayotini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Masjidlar musulmonlar uchun ibodat joyi bo'lib, u yerda namoz o'qiladi, Qur'on o'qiladi va diniy ta'lim beriladi. Xiva xonligida masjidlar, asosan, jamoat namozlari va bayram namozlari uchun xizmat qilgan. Masjidlar ijtimoiy hayotning markazi bo'lib, odamlar bir-biri bilan muloqot qilish, fikr almashish va muammolarni hal qilish uchun yig'ilgan. Ular shuningdek, ijtimoiy tadbirlar, bayramlar va boshqa muhim voqealar uchun joy bo'lgan. Masjidlar madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular san'at, arxitektura va adabiyotning rivojlanishiga hissa qo'shgan. Masjidlar ichida ko'plab san'at asarlari, naqshlar va yozuvlar mavjud bo'lib, ular Xiva xonligining madaniy merosini aks ettiradi. Bundan tashqari, masjidlar ko'pincha madrasalar bilan birga bo'lib, ta'lim berish va diniy bilimlarni oshirish uchun joy bo'lgan. Ular yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynagan. Bir so'z bilan aytganda Xiva xonligi hayotida masjidlar nafaqat diniy ibodat joylari, balki ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismi bo'lib, ularning roli va ahamiyati juda katta bo'lgan.

Xiva xonligida islom dinining o'rni va ahamiyatini o'rganishda xonlik tarixida muhim o'rin egallagan diniy obidalarning o'rni qanday ekanligini o'rganish zarurdir. Masjidlar islom sivilizatsiyasi ibodatxonasi hisoblanib ramziy qadriyat jihatidan masjid islom san'atida muhim o'rin tutadi. Masjid Baytulloh (Allohning uyi) deb ataladi. Xuddi shu ibora inson qalbiga nisbatan qo'llaniladi. Islom tasavvufini, san'atini, madaniyatini va jamiyatini tushunish uchun masjid ramziyligini tushunish zarur[1.61-bet].

Markaziy Osiyo xonliklarida qurilgan masjidlar turli xil ma'nolarni o'z ichiga olgan muhim ramzdir. "Muqaddas joy" tushunchasi islom sivilizatsiyasida muhokama qilinsa-da, albatta, masjidlarni ham ziyoratgoh, ham dinning jamiyatdagi ifodasi sifatida ko'rish mumkin. Hadislar o'sha kundan boshlab mo'minlar azon bilan ibodatga chaqiriladigan, musulmonlar to'planib namoz o'qiydigan bu maskan o'zining qadriyatlarini ifodalashi bilan bir qatorda ko'rgazmali kuchga ega

bo'lishi kerak. Masjid o'zi joylashgan geografiyaning xususiyatlariga ko'ra o'zgarib turadigan, madaniyat izlarini shiddat bilan o'zida mujassam etgan tushunchalar tashuvchisidir. Islom sivilizatsiyasi san'at va me'morchilik orqali, bu yerda ba'zan kuch va ba'zan estetik zavq eng aniq namoyon bo'ladi[2. 39-b].

Masjidlar o'rta asrlar davomida islom bilan birga kuch va qudrat ramzi sifatida ko'rilgan. Shu qatorida xonlarning katta va dabdabali masjidlar qurish orqali o'z qudratini va dinga qanchalik qadrli ekanini ko'rsatish maqsadi buning muhim namunasidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Markaziy Osiyo me'morchiligidagi arxitektura shakllarining o'zi ham, me'moriy bezaklari ham o'rganildi. Ammo ko'pincha u eng umumiy xarakterdagi xulosalar bilan yakunlanadi. Biroq, bu masalaga batafsilroq yondashishga imkon beradigan ko'plab ishlar mavjud. G.Pugachenkova, L.Rempel asarlari hamda antik va o'rta asrlarda O'rta Osiyoga bag'ishlangan to'plamlarda chop etilgan maqolalar allaqachon hammaga tanish, deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari xonlik tarixini rus sharqshunos olimi V.V.Bartold o'zining tadqiqotlarida juda yaxshi yoritib bergan. P.Ivanov va M.Yo'ldashov tadqiqotlarida xonlik tarixi arxiv hujjatlari asosida o'rganilgan va ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan arxiv hujjatlarida masjidlar ro'yxati va ularga berkitilgan aholi ro'yxati va undirilgan soliqlar ro'yxati, vaqf mulklari hisoblarini ko'rishimiz mumkin. Masjidlar tuzilishi va tashqi ko'rinishini L.Mankovskaya, V.Bulatova tadqiqotlarida uchratamiz.

**MUHOKAMA.** Xiva xonligi tarixini o'rganishda masjidlar haqidagi ma'lumotlar juda muhimdir. Masjidlar faqat diniy markazlar emas, balki ijtimoiy va siyosiy hayotning markazi sifatida ham xizmat qilgan. Xiva xonligidagi masjidlar, xususan, shaharning boshqaruv tizimida muhim rol o'ynagan. Xiva xonligida xalq shahar va qishloqlarga gavjum bo'lib to'planardi. Bu shahar va qishloqlarning atroflari mustahkam devorlar bilan o'ralgan edi. Shuning uchun ularni qal'a deb atash mumkin edi. Anbar Manoq, Gurlan, G'azavot, Ilonli, Qipchoq, Qilich Niyozboy, Qo'ng'iroq, Urganch, Qiyot, Mang'it, Yangi Urganch, Pitnak, Rahmon berdi biy, Toshovuz, Hazorasp, Xonqa, Xo'jayli,

Chimboy, Shobboz, Shovot, Sho‘raxon ana shunday qal’alar edi. Bu qal’alarda doim ikki mingga yaqin xonadon yashar edi. Xiva shahrida esa besh minglab uylar bor edi. Xiva shahri 4029 ta uy 55 masjidga bo‘lingan. Har bir masjidga o‘rta hisobda 73 xonadon berkitilgan. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asr ikkinchi yarmida 65 ta masjid bor edi [3.198 - bet].

Xiva xonlari arxivi hujjatlarida masjidlar haqida juda qimmatli ma’lumotlarni bilishimiz mumkin. Masalan, S-699 va 74-sonli solg‘ut daftarlari butun xonlikning ma’muriy-territorial bo‘linishini tiklashimiz uchun bizga imkon beradi. Shu bilan birga xaritada ayrim masjidning o‘rnini ham belgilash mumkin. Shuningdek, xonlikdagi 1183 masjidning nomlari ham keltirib o‘tilgan. Masjid jamoasida hukumat oqsoqollari va kadxudolar qo‘lida bo‘lib, ular eng boy yerli zamindorlardan tayinlanardi. Xiva xonligida ba’zi bir muhim davlat ishlarini masjidlar bajarardi [3. 272 bet].

Xonlik hududidagi eng katta masjidlardan Said ota masjidi hisoblanib hovli tipidagi masjiddir. Xorazm uchun noodatiy hovlidan ajratilgan qishki namozni o‘z ichiga oladi, hamda bir qator yordamchi binolar: xonaqohga kiraverish oldidagi yopiq qishki hovli, darvozaxonalar, tahoratxona, boshpanalar, omborlar. Masjidning asosini bir qator bilan o‘ralgan hovli tashkil etadi. Yog‘och ayvon va g‘ishtdan yasalgan to‘siq ustuni, tashqi tomoni bo‘sh, ichi esa bo‘sh uchli bo‘shliqlar bilan ajratilgan; to‘rtburchaklar rejada, ko‘cha bo‘ylab cho‘zilgan: uzun tashqi devorga mehrob o‘rnatilgan. Mehrob devoriga tutashgan. Yordamchi binolar hovlidan tashqarida joylashgan va u bilan bevosita aloqa qilmaydi. Hovli markazida Xorazm turar joylaridagidek quduq va gulzor bor. Xonqaning qishki namozxonasi hovlining g‘arbiy tomoni ortida alohida bino sifatida belgilangan. U bilan aloqa cho‘zinchoq ma’muriy bino orqali, masjidning g‘arbiy ayvonidan va shimoli-g‘arbiy burchakdagi qishki yopiq hovli orqali o‘tadi[4. 134-bet].

Juma masjidi ham Xiva xonligidagi eng muhim masjidlardan hisoblanadi. Juma masjidi Ichanchal’aning qoq markazida, shaharning g‘arbiy va sharqiy darvozalarini bog‘lovchi yo‘lining o‘rtasida joylashgan. Bino turiga ko‘ra, u qadimiy arab ustunli masjidlarida bo‘lgani kabi hovlisiz, asl xorazmcha talqini bilan qoplangan ko‘p ustunli juma

masjiddir. Masjid trapetsiya shaklida bo‘lib, sharqi-g‘arbiy yo‘nalishda cho‘zilgan, uning shimoliy jabhasi asosiy shahar magistraliga qaragan holda devordagi teshik ko‘rinishidagi asosiy kirish joyi assimetrik tarzda joylashgan asosiy jabhaning drenaj uchida kichik va to‘rtburchaklar yon tomonlari sharqiy va g‘arbiy devorlarning markazlari orqali kesilgan. Masjidning g‘isht devorlari bilan o‘ralgan butun maydoni to‘sinli tom bilan qoplangan bo‘lib, u 3153,15 m kvadrat to‘rga o‘rnatilgan 212 ta ustun bilan mustahkamlangan. Mehrob janubiy devorning markazida joylashgan, unga tutash maydondagi shift biroz ko‘tarilgan. Tashqi ko‘rinishida masjid diqqatga sazovor emas, uning jabhalari me’moriy ishlov berilmagan, ishqalangan tikuvli qo‘pol g‘isht to‘qimasida qolgan, faqat masjidning noyob o‘yilgan kirish eshigi ko‘zga tashlanadi. Ichki makonlarning dekoratsiyasi ham juda oddiy, devorlari uch xil vaqtga qaraganda ganch bilan gipslangan, faqat janubiy mehrob devori aniq kech shaklidagi tekis bo‘laklar bilan bezatilgan. Mehrob uyasi yashil bo‘yoq bilan bo‘yalgan quruq dizayndagi stalaktit “iroki” ombori bilan to‘ldiriladi. Mehrob devorining tirgak va bo‘shliqlari qora va qizil bo‘yoqlar bilan o‘simliklarning (daraxtlar, yong‘oqlar, atirgullar, irislar) real tasvirlari bilan bo‘yalgan. Masjid ustunlari har xil turdagi, turli davrlardagi binolardan yig‘ilgan, ularning aksariyati kech, XVIII- XIX asrlarga oid. Ustunlar mos ravishda moslashtiriladi. 212 ta ustundan 25 tasi qadimiy, X-XVI asrlarga oid. Chuqur o‘yilgan 4 ta ustun bor. Yozuvlar kufiy yozuvida ishlangan bo‘lib, gul naqshlari bilan o‘ralgan[4. 136-bet].

**NATIJALAR.** Xonlik tarixida turli davrlarda qurilgan turli hajm va xususiyatdagi masjidlar islom sivilizatsiyasi uchun ramziy inshootlarga aylandi. Ushbu masjidlarga bunday ahamiyat beradigan narsa – ular ko‘targan estetik qadriyatlar, shuningdek, ular qurilgan davrning siyosiy va ijtimoiy ma’nolaridir. Masjidlar islom me’morchiligida maxsus tadqiq qilinganda, islom dini qanday keng geografiyaga yoyilganligini unutmashlik kerak, lekin geografik farqlar birlikka to‘sqinlik qilmaydi, chunki masjid me’morchiligi o‘z mohiyatini geografik, ijtimoiy va tarixiy xususiyatlardan tashqaridagi ma’naviyatdan oladi. Islom me’morchiligi timsollarini o‘zida mujassam etgan devorlarni yaratgan me’mor va quruvchi ham

boshqa islom rassomlari kabi o'zi ishlatayotgan materiallarda chuqur ma'noga ega.

Islom sivilizatsiyasining ramzi bo'lgan masjidlar ham tafsiloti, ham umumiy ko'rinishi jihatidan juda ko'p turli ma'nolarga ega, albatta. Masjidni bezashda qo'llanilgan har bir naqsh va naqshlar o'rtasidagi munosabat bevosita dinni timsol qilish uchun yaratilgan. Bu dizayn o'zining turli ma'nolari bilan sivilizatsiyaning estetik jihatini ochib beruvchi chuqur ma'noga ega. Bundan tashqari, mumtoz masjidlarning me'moriy timsollari muhim o'rin tutadi. Masjidlarda ko'rilgan yana bir ramziy jihat shundaki, ular o'zining me'moriy joylashuvi jihatidan islom dinining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan jamoat tushunchasini aks ettirgan. Masjidlar qurilishi uchun azon bilan yo'lga chiqqanda har kim bemalol yeta oladigan nuqtalar tanlangan. Masjidlar uchun qulaylik asosiy xususiyat sifatida belgilandi. Bundan tashqari, masjidlar yonida qad ko'targan azon aytiladigan minoralar ham muhim ahamiyatga ega. Azon aytiladigan joy arabchada Minora (Nurli joy) deb ataladi<sup>101</sup>. Minora islom sivilizatsiyasining muhim ramzi sifatida yerdan osmongacha cho'zilgan shakli va nomi bilan diqqatni tortadi.

**XULOSA.** Masjidlarning jamiyatdagi ahamiyati va vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan ramziy ma'nolari islom sivilizatsiyasi jarayonlarini tushunish nuqtayi nazaridan muhim ma'lumotlar

beradi. Jamiyatning din bilan munosabatini uning ibodat joylari bilan aloqasidan ham to'g'ridan-to'g'ri o'qish mumkin, bundan tashqari, sivilizatsiyani tashkil etuvchi asosiy umumiy qadriyatlar namoyon bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, masjidlar turli davrlarda ijtimoiy jihatlarida islom sivilizatsiyasi ramzi ekanligini ko'rish mumkin. Masjid hamjihatlik maskani, islom jamoatchiligi markazidir. Bu nafaqat ibodat joyi, balki ijtimoiy muloqot nuqtasidir. Tarix davomida masjidning eng muhim vazifasi ijtimoiy o'lchamda bo'lgan. Ba'zan siyosiy qarorlar qabul qilinadigan yoki turli masalalardan xalqni ma'ruzalar orqali xabardor qiladigan tuzilma bugun ham xuddi shunday davom etmoqda.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Birekul, Mehmet "Kosmosning kodlash kuchi: Sivilizatsiyalarga hayot beradigan tuzilmalar", *Civilization Studies jurnali*, 1-jild, soni: 2, 2014 yil, 61-bet
2. Hümeýra Doruk Keskin. İslam medeniyetinde bir sembol olarak cami: günümüzdeki camiler etrafında dini, siyasi ve estetik tartışmalar. Aralık 2019, 125-sayfa.
3. М. Йўлдошов. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент. 1959 йил. Б. 358.
4. Л.Маньковская, В.Булатова. Памятники зодчества Хорезма. Тошкент. 1978. С.193.

